

Qirg'iziston Prezidenti bilan uchrashuv



2021-yil 27-fevral kuni Bishkek shahriga amaliy tashrif bilan kelgan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Kamilov Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov tomonidan qabul qilindi.

Vazir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovga yo'llagan maktubini topshirdi.

Bo'lib o'tgan suhbat chog'ida tomonlar siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi ikki tomonlama munosabatlarning rivoji haqida fikr almashdilar.

Markaziy Osiyoda so'nggi yillarda shakllangan xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo'shnichilik muhitini yanada mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, bugun dengiz portlariga va yangi tashqi bozorlarga eng qisqa yo'l ochadigan transport yo'laklari tizimini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqdaki, bu, o'z navbatida, mintaqalararo savdo-sotiqning jadallashuvi, tranzit yuk tashuvlarini orttirish, xom-ashyo, asbob-uskunalar va tayyor mahsulotlarni tashish narxining pasayishiga xizmat qiladi.

Manba